



O'ZBEK TILI HAQIDA VA O'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH TURLARI

Mohinur To'lanova Davlatbek Qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslik fani haqida ma'lumotlar berilgan. O'zbek tilidagi ma'no ko'chish usullarining ta'rifi izohlangan. Turli tilshunoslarning ma'no ko'chish usullariga bergan na'zariyalari qiyoslangan. Badiiy adabiyotdan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, o'z mano, ko'chma ma'no, monosemantik, polisemantik, metafora, sinekdoxa, metonimiya, ma'no ko'chish.

ABOUT THE UZBEK LANGUAGE AND TYPES OF TRANSFER OF MEANING IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract: This article provides information about the science of linguistics. The definition of methods of transfer of meaning in the Uzbek language is explained. The theories of different linguists on the methods of meaning transfer are compared. Examples from fiction are given.

Keywords: Linguistics, self-meaning, figurative meaning, monosemantic, polysemantic, metaphor, synecdoche, metonymy, transfer of meaning.

ОБ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ВИДАХ ПЕРЕДАЧИ СМЫСЛА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Абстрактный: В данной статье представлена информация о науке языкознании. Объясняется определение способов передачи смысла в узбекском языке. Сравниваются теории разных лингвистов о способах передачи смысла. Приводятся примеры из художественной литературы.

Ключевые слова: Языкознание, самозначение, переносное значение, однозначность, многозначность, метафора, синекдоха, метонимия, передача смысла.

KIRISH

Jamiyatimizda har tomonlama yetuk, ma'nan barkamol avlodni tarbiyalashda, ilm-fan, madaniyat, zamonaviy ta'limning o'rni beqiyosdir. Farzand ta'limiga sarflangan sarmoya - eng samarali investitsiya. O'zbekistonda oxirgi yillarda ko'rib turganimizdek, ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifatga e'tibor tubdan o'zgardi. Har sohada faol o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Zamonaviy o'qitish tizimlari, interfaol ta'lim uslublaridan yurtimiz maktab va barcha ta'lim muassalarida keng miqyosda foydalanilmoqda. Matematika, iqtisodiyot, kompyuter savodxonligi, huquq, tarix, ingliz va rus tillari bilan bir qatorda til va adabiyotga



ham bevosita e'tibor berildi. Bo'lajak avlodni ma'lum bir sohaning mutaxassisi bo'lishida yuqoridagi fan va bilimlar muhim sanaladi.

Ma'lumki, tilga e'tibor berish davlat va jamiyatda juda muhim va o'rinli. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. Davlat korxonalari, ta'lim muassasalari, ish hujjatlari o'zbek tilida olib boriladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PF-6084 Farmoni va ushbu hujjatga ko'ra ishlab chiqilgan "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi" asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad, albatta, yosh avlod va jamiyatning barcha a'zolarini savodxonligi va o'z tiliga hurmatini oshirish davlat va mutassaddilar bilan bir qatorda har birimizning burch va majburiyatimiz hisoblanadi. Tilshunoslik fani ham rivojlanib, u ustida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunos olimlar: G'ulomov Ayub G'ulomovich, Ne'matov Hamid G'ulomovich, Alibek Rustamov, Ernst Begmatov, Alibek Rustamov, G'anijon Abdurahmonov, Shonazar Shoabdurahmonov, Abdulhamid Nurmonov kabi qator Filologiya fanlari doktori, professorlar o'z ilmiy ishlarini qilgan va hozirda izdoshlari ustozlar yo'lidan borib, davom ettirmoqdalar.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti – so'z. Uning o'z va ko'chma, bir va ko'p ma'nolari, ma'noviy turlari, eskirgan va yangi, uslubiy xoslangan va xoslanmagan ko'rinishlari, shevaga oid va adabiy til me'yorlariga solingan variantlari mavjud.

Endi e'tiborni so'zlarning o'z va ko'chma ma'nosini izohlashga qaratamiz.

O'z ma'no - So'zning predmet, voqea-hodisa haqidagi dastlabki, real nutqdan tashqarida anglatgan ma'nosi. Masalan: quloq – "eshitish vositasi, inson tana a'zolarining biri", bosh – "inson tana a'zosi" ekanligini konteks (matn) yoki jumlani ko'rmay turib ham tushuna olamiz. Demak, bu ma'no so'zning o'z ma'nosi hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, bu kabi ko'plab so'zlar o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni ham anglatishi mumkin. Aynan o'sha so'zlar anglatgan ma'no konteks bilan birga tushuniladi va matnda ayon bo'ladi. Unday ma'nolar ko'chma mo'noli so'zlardir.

Ko'chma ma'no – bir predmet yoki hodisa nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi.⁶ So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari yaxlit holatda ko'p manoli (polisematnik) so'zlarni hosil qiladi. Lekin ayrim so'zlar bundan mustasno bo'lishi ham mumkin. Ularning faqatgina bir ma'nosi mavjud bo'lib, bir ma'noli (monosemantik) so'zlarni tashkil qiladi.

Polisemantik so'zlar – o'z va ko'chma ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar.

Monosemantik so'zlar – faqatgina bir ma'noga ega bo'lgan, ilm-fan sohalariga oid atamalar.

Demak, leksikologiyaning muhim obyekti sanalgan, atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlarning ma'nosi va ma'noviy xususiyatlari rangba rangdir. So'zlarning qo'shimcha ma'nolari so'zlardagi ma'no taraqqiyotining boyib borishiga va yuksalishiga xizmat qiladi.

⁶ Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / H.Jamolxonov. – T.: <<Talqin>>, 2005. – 156b



Bunday hodisalardan biri ma'no ko'chishidir. O'zbek tilida ma'no ko'chishininig quyidagicha usullari mavjud: metafora, sinekdoxa, metonimiya, vazifadoshlik va kinoya.

Metafora – lug'aviy ma'nosi “metaphora” – “ko'chirma” deganidir. Metaforaning vazifasi shuki, undan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutqimizni ta'sirchan va jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Metaforaviy ko'chimdan foydalanish bir xillikdan va zerikarli suhbatlardan yiroq bo'lishga imkon yaratadi. Badiiy adabiyotning obrazli va emotsionalligini namoyon etadi. Quyidagi misollar orqali uning rangba rang ekanligi hamda ichki turlarga bo'lishini ko'rib chiqamiz:

*eshikning qulfi – qalb qulfi. Ushbu misolda vazifaviylik asosida ma'no ko'chishi yuz bergan. Ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikkala birikmada ham “qulf” so'zining va'zifasi o'xshash. Eshikning qulfi ham unga kira olmaslik uchun xizmat qilsa, qalb qulfi ham aynan yopiqlik, to'siq vazifasini bajaradi.

*odamning burni – choynakning burni. Shakliy o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi. Demak bunda choynak old qismining shaklan inson burniga o'xshaganligi choynak burni deb atashimizga sabab bo'lyapti.

*achchiq qalampir – achchiq so'z. Ikki predmet o'rtasidagi o'xshashlik nisbiylikka asoslanadi. Ya'ni qalampirning achchiqligi uning o'ziga xos ta'm xususiyati, endi esa bu xususiyat so'zga nisbiy holatda ko'chib qolgan.

*odamning beli – ishning beli. Narsa va predmetlarning joylashish o'rniga ko'ra ma'no ko'chishi. Misollarga e'tibor beradigan bo'lsak, bel so'zi inson gavdasining qoq yarmi hisoblanadi. Ishning o'rtasini ifodalash uchun ham bel so'zini qo'llashimiz maqsadga muvofiq. Aytaylik, oddiygina qilib ishni o'rtasiga keldim va yoki ishni o'rtasiga tepma degan jumlaning ishlatgandan ko'ra "ishning beliga tepma" deya foydalanish oddiylikni bartaraf etadi. Metaforaning ham vazifasi ta'sirchanlikni oshirish va oddiylikdan qochish.

*Sharofat xola gilamning changini ketkazish uchun savaladi – Berdiyev shoir yozgan she'rni gazetada boplab savaladi. Ish-harakat asosidagi nisbiy o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi. Birinchi gapdagi "savalamoq" fe'li o'z ma'nosida kelgan, gilamning changini ketkazish uchun uni biror buyum bilan savalaymiz, albatta. Ikkinchi gapda esa ko'chim yuz bergan, “gazetada savalash” jumlasidan biz “tanqid qildi”, “raddiya bildirdi” degan ma'nolarni tushunib olamiz.

Bir go'zal bor go'zallardan ziyoda,
Yuz ko'zida pariligi ifoda,
Ilm-u odob, shirin suhbat hayoda,
Bir go'zal bor go'zallardan ziyoda.
(Bobur Bobomurod)

She'rdagi “shirin suhbat” birikmasiga qarasak, suhbat so'zi ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro muloqotiga nisbatan ishlatiladi. U mavhum narsa, ko'z bilan ko'rish va yoki qo'l bilan ushlab olinishning imkonini yo'q. Shunday ekan, uning "shirin suhbat" tarzida qo'llanilishi ko'chma ma'noga yaqqol misoldir.

Sinekdoxa – lug'aviy ma'nosi “synekdoche” – “birga anglamoq”, “qo'shib anglamoq”. Ma'no ko'chishining ushbu turida nomlangan narsa va hodisalarning miqdor belgilariga asoslanadi. U o'z ichida ikki guruhga bo'linadi.



*butun orqali qismni ifodalash – “Bizdanam qiynalib yashayoganlar bor, axir besh qo’l baravar emas”. (Hulkar To’ymanova “Bola” hikoya) Yuqoridagi gapda “besh qo’l” birikmasi “besh barmoq” ni ifodalash uchun xizmat qilyapti. Ya’ni butun orqali qism ifodalanyapti.

*qism orqali butunni ifodalash – “Bir juft ko’z uning orqasidan bardan chiqib ketdi”. (Gazetadan) Bu misolda qism (bir juft ko’z) butun (inson) ni ifodalab kelyapti.

Metonimiya – lug’aviy ma’nosi “qayta nomlash”, “almashtirmoq”. Ushbu ma’no ko’chish turida narsa va hodisalar nomining biri ikkinchisiga o’tib qolish hodisasi ro’y beradi. Metonimiya usulida ma’nosi ko’chgan predmetlar o’rtasida na tashqi na ichki o’xshashlik bo’ladi. Lekin o’zaro aloqadorlik, yaqinlik bo’ladi. “Bir kosa suzing” gapi bilan “bir kosa sho’rva suzing” gapini farqlaydigan bo’lsak, “kosa” va “sho’rva” so’zlari bir-biriga mazmunan aloqador, ya’ni sho’rva suyuq bo’lgani sabab suziladi. Ma’no ko’chishning bu turida gap yoki jumla tarkibida ikkita so’z keladigan holatlarda bir so’z tushib qolib, uning ma’nosi ikkinchi so’zga yuklatiladi. Qishloq ko’chib ketgan. Bu gap metonimiya usulida ma’no ko’chish turiga uchramaganda: “Qishloq aholisi ko’chib ketgan” shaklida bo’lar edi.

Xulosa. Yuqorida izohlangan ma’no ko’chishning har bir turlarining nutq jarayonida va badiiy adabiyotda o’rni beqiyosdir. Nutqimizda so’zlarning turli ma’nolaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilda so’zlarning ko’payib ketmasligi, so’zlashuvchilarning nutqiy jarayonida qiyinchiliklar bo’lmasligi uchun ko’chma ma’nolarni qo’llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To’lanova, M., & Sotvoldiyev, D. (2023). “BOBURNOMA”DA O’SIMLIK VA HAYVONOT OLAMI TASVIRI. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(31)
2. To’lanova, M. (2024). “O’ZBEK VA RUS TILLARIDAGI MAQOLLARNING ETNOMADANIY XUSUSIYATLARI”. Interpretation and Researches, 1(23).
3. A.G’ulomov va M. Asqarovning. “Hozirgi o’zbek adabiy tili”.-Toshkent., “O’qituvchi”, 1965. 560-bet.
4. Hozirgi o’zbek adabiy tili: Oliy o’quv yurtlari uchun darslik / H.Jamolxonov. – T.: Talqin, 2005. – 272b
5. Hozirgi o’zbek adabiy tili: O’quv qo’llanma / H.Jamolxonov. – T.: Ta’lim, 2015. – 150b
6. Berdialiyev Abduvali, Ermatov Ixtiyor. Hozirgi o’zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Darslik. – T.: “Turon-iqbol” nashriyoti, 2021. – 204 b.